# Kasb bayramingiz muborak bo'lsin, aziz kimyogarlar!

// 31.05.2026
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kasb-bayramingiz-muborak-bo-lsin-aziz-kimyogarlar

**Aziz hamkasblar, “O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati hamda barcha tarmoq korxonalarida faoliyat yuritayotgan qadrli kimyogarlar!**

Sizlarni kasb bayrami – Kimyogarlar kuni bilan chin dildan tabriklaymiz!

Kimyo sanoati milliy iqtisodiyotimizning eng serqirra, dolzarb va yurtimiz ravnaqiga katta hissa qo‘shuvchi sohalaridan biri. Bunday sharafli sohada xizmat qilayotgan haqiqiy fidoiy, o‘z kasbining ustasi bo‘lgan kuchli mutaxassislarning mehnati har qanday olqishu, e’tiroflarga sazovor.

Ezgu maqsadlarimizni amalga oshirishda avvalo har biringizga mustahkam sog‘lik, ko‘tarinki kayfiyat, xonadoningizga xotirjamlik, fayzu baraka, kasbiy faoliyatingizga g‘ayratu shijoat va muvaffaqiyatlar tilaymiz!

Sizning mehnatingiz eng qimmatbaho kimyoviy element. Tanlagan yo‘lingiz va kasbingiz bilan faxrlanish hissi sizlarni aslo tark etmasin!